



MTTDA MA'NAVIIY-MA'RIFIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH

Nazirova Guzal Malikovna

Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti

Ahmedova Irodaxon, A'zamova Muqaddamxon

Qo'qon DPI talabalari

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2019 yil 15 martdagi "Maktabgacha ta'lim muassasalarida Ma'naviyat kunilni tashkil etish to'g'risida"gi 43-son buyrug'ida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har haftaning juma kunlari tarbiyalanuvchilarning ma'naviy fazilatlarini shakllantirish maqsadida ma'naviyat kunini o'tkazish va har oyning ohirgi juma kunlari pedagog xodimlarni ma'naviy dunyoqaraishini boyitish maqsadida ma'naviyat soatlarini tashkil etish belgilangan. Shuningdek buyruqda tarbiyalanuvchilar uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish ko'rsatilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ta'lim tarbiya jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rstib tarbiyalanuvchilarda Vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, milliy qadriyatlarimiz, urf odat va an'analarimizga sodiqlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ma'naviyat kuni"ni tashkil etishda quyidagilarga e'tiborni qaratish talab etiladi:

- yuqori malakali, ma'naviy salohiyatga boy pedagoglardan iborat tashviqot guruhlarini tashkil etish;
- axloqiy-tarbiya, madaniy-ma'rifiy targ'ibot va tashviqot ishlarini kuchaytirish;
- milliy ma'naviyatimizning mazmun-mohiyati, qadimiy ildizlarni, noyob va betakror namunalari, bugungi kunda rivojlanish tamoyillarini aks ettiruvchi, aniq maqsadga qaratilgan tadbirlar rejasini ishlab chiqish;
- tarbiyalanuvchilarning o'quv tarbiya jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida so'ngi yillarda yurtimizda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, ayniqsa ta'lim sohasida erishilgan yutuqlar bilan tanishtirish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlari kutbxonalarida tarbiyalanuvchilar o'rtasida "Jajji kitobxon", "Kitoblar mo'jizasi", "Kitoblar olamiga sayohat", "Ertaklar-yaxshilikka yetaklar" mavzularida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va sahna ko'rinishlari tashkil etish"
- pedagoglar o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olish, ularni milliy mentalitimizga yot zararli ta'sirlardan "ommaviy madaniyat" xurujlaridan himoya qilishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish;
- pedagog va tarbiyalanuvchilar uchun ma'naviy-ma'rifiy intellektual tadbirlar va sport musobaqalari uyushtirish;
- ta'lim tarbiya jarayonini muvofiqlashtirish maqsadida o'zini-o'zi boshqaruv tizimlari faoliyatidan keng foydalanish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali bolajonlarda buyuk allomalarimiz, milliy qahramonlarimiz, sarkardalarimiz bilan fahrlanish va ularning boy ma'naviy merosini to'g'risida tushunchalarga ega bo'ladilar. Ta'lim jarayonida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni eng asosiy ko'zlangan vazifalaridan biri bu ma'naviy o'zlikni anglashdir. Ta'lim jarayonida yoshlarning ongida ma'naviy o'zlikni kamol toptirish, yuksak vatanparvarlik ruhini uyg'otish eng birinchi masala hisoblanadi. Ma'naviy o'zlikni anglash negizida



Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain)

ma'naviy kamolatga yetishga intilish yotadi. Ma'naviy jixatdan yetuk bilimlarga ega bo'lgan yoshlar kelgusida mamlakatimiz rivojiga o'zlarini bexisob xissalarini qo'shadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy tarbiyaning asosi tarbiyalanuvchilarda umuminsoniy va millatga xos ma'naviy, madaniy an'analar, qadriyatlar haqidagi dastlabgi ta'savurlarni shakllantirishdir. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezonlar va qarashlar yaxshilik va ezgulik, mehr-oqibat, andisha, axloq normalari kabi muqaddas tushunchalarni poydevorini shakllantirish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kechadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda juda ehtiyotkorona munosabatda bo'lish lozim. Chunki maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tashqi olamni o'z hissiyotlari bilan anglaydilar.

Shularni inobatga olib maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi pedagoglari tashkilotga qadam qo'yar ekan, ularni tashqi ko'rinishi, muomala madaniyati, o'zini tutishi bilan tarbiyalanuvchilarga o'rnak bo'lishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni samarali tashkil etishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim.

- Ma'naviyatning milliy asoslari haqidagi tushunchalarni shakllantirish. Bunda rivoyat, afsona, ertaklar, hikoyalar va xalq dostonlaridan foydalanish orqali tarbiyalanuvchilarda milliy qadriyatlarimiz, urfodatlarimiz haqida tushuncha berish.
- Tarbiyalanuvchilarga milliy dostonlarimiz qahramonlari Spitamen, Alpomish, Rustamxon, To'maris, Shiroqlarning ko'rstgan jasoratlari haqida so'zlab berib ularda jasurlik, do'stlik, sadoqatlik, vatanparvarlik kabi xislatlarni shakllantirish.
- Milliy urf-odatlarimiz qadriyatlarimizni tarannum etuvchi qo'shiqlar, xalq dostonlari, musiqalar va raqslar orqali bolalarda milliy san'atimizga hurmat ruhini shakllantirish.
- Tarbiyalanuvchilarning muomala madaniyatlarini shakllantirish maqsadida tashkilotda hushmuomalalalik kunlarini tashkil etish. Bunda bolajonlar sehrli so'zlar assalomu-alaykum, rahmat, marhamat, kechirasiz, iltimos, uzr, kabi so'zlar orqali bir-birlari bilan muomalada bo'lishadi.

Buning natijasida tarbiyalanuvchilarda jamoaviylik xissi shakllanadi. Bunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan ma'naviy ma'rifiy tadbirlarni o'rni beqiyos. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida quyidagi turda ma'naviy ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish mumkin.

1. Bayram tadbirlari
2. Mavzuli ertaliklar
3. Ko'rik tanlovlar
4. Sprot musobaqalari

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni ma'naviyatni ma'naviy fazilatlarini shakllantirish ma'naviy ma'rifiy tadbirlarni samarali tashkil etishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Har bir tadbirda ko'tarib chiqariladigan muammoning mohiyatini ochib berish uchun ta'sirchan vositalardan foydalaniladi, Tadbirlar mazmun jihatdan ma'lum kompozitsion tizimga kelishi uchun undagi bayoniy uslub va ta'sirchan vositalar uyg'unlashtirilgan bo'lishi kerak. Aks holda ma'naviy tadbirning mazmuni sayoz bo'lgani uchun uning ta'siri ham samarasiz bo'ladi.

Har bir tadbir ta'limiy va tarbiyaviy hususiyatga ega bo'lishi bilan birga xalq ijodiyoti an'analariga asoslangan ma'naviy ma'rifiy manbalarni ommalashtirishda targ'ibot, tashviqot va axborot berish xususiyatiga ham egadir. Tadbirlarni ta'sirchanligi va samaradorligini oshirish uchun mazmunga alohida e'tibor berish, turli vositalardan unumli foydalana bilish muhim ahamiyatga egadir. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni rejalashtirishda quyidagilarni e'tiborga olish zarur:

1. Tadbirni rejalashtirishda ishtirokchilarning tayyorgarlik darajasi, iqtidoriga tayanish muhim ahamiyatga ega. Chunki tadbirda tashkilotchining niyati tarbiyalanuvchilar tamonidan to'la anglab



yetilmagan holda samarali natijaga erishish mumkin emas.

2. Tadbirlar rejasini va ssenariy puhta ishlab chiqish.
3. Tadbirlar mazmuni aniq belgilash va mazmunan yakunlash. Ma'naviy–ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda tashkilotchilar quyidagi qoidalarga amal qilishlari muhim. -tadbirning maqsadini aniq belgilash
 - ✓ tadbir ishtirokchilarining har biri uchun vazifalarni aniq belgilash
 - ✓ tadbir uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni oldindan tayyorlash
 - ✓ natijalarni aniqlash uchun muayyon mezonlarni belgilash
 - ✓ javobgarlik, uning egasi va hisobot vaqtini taqsimlash

Ma'naviy-ma'rifiy jarayon ongli, ma'suliyatli faoliyat bo'lib, unda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni komil inson qilib yetishtirishda unga har tamonlama ta'sir ko'rsatadi. Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak maktabgacha yosh davridagi bola rivojlanish jrayonida o'z ajdodlari tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi, atrof-muhit narsa va hodisalar bilan muloqotga kirishadi. Tarbiyalanuvchilarni bu jarayonlar bilan tanishtirishda esa ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni keng imkoniyatlaridan unumli foydalanish zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2019 yil 15 martdagi "Maktabgacha ta'lim muassasalarida "Ma'naviyat kuni"ni tashkil etish to'g'risida"gi 43-son buyrug'i.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.
4. Nazirova G Malikovna, CONTENT AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AND EDUCATORS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS- INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & ..., 2022
5. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ozrGWXoAAAAJ&citation_for_view=ozrGWXoAAAAJ:_FxGoFyzp5QC
6. Anvarovna, Sultonova Nurxon, and Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna. "PROBLEMS OF WORKING WITH PARENTS OF CHILDREN NOT INVOLVED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.1
7. Anvarovna, Sultonova Nurxon. "Some Aspects of the Maria Montessori Method in the Education of Preschool Children." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.6 (2022): 169-173. (2023).